



**Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga rahbarlik qilishda zamonaviy
yondashuv**

Rahimova Orzigul Jahon qizi,

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

+998 990147305; raximovaorzigul1@gmail.com

Аннотация: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlarni rejalashtirish va hisobga olish shakllari. Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish shartlari va metodikasi, boshqaruvda innovatsion jarayonlar tavsifi va metodik ishlarga rahbarlik qilish usullari, roli haqidagi fikrlar tahlil qilingan.

Калит сўз: Ta'lim-tarbiya, boshqaruv, innovatsion, metodik, rejalashtirish, menejment, nazorat qilish, zamonaviy yondashuv.

**Современный подход к управлению дошкольной образовательной
организацией**

Рахимова Орзигул Жахоновна,

Азиатский международный университет

Преподаватель кафедры «Педагогика и психология»

+998 990147305; raximovaorzigul1@gmail.com

Аннотация: Формы планирования и учета воспитательной работы в дошкольных образовательных организациях. В дошкольном образовании анализировались условия и методы планирования воспитательной работы, описание инновационных процессов в управлении, методы руководства методической работой, роль мнений.



Ключевые слова: Образование - образование, менеджмент, инновационный, методический, планирование, менеджмент, контроль, современный подход.

A modern approach to the management of preschool educational organizations

Rakhimova Orzigul Jahonovna,

Asian International University

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology

+998 990147305; raximovaorzigul1@gmail.com

Annotation: Forms of planning and accounting of educational work in preschool educational organizations. The conditions and methodology of planning educational work in pre-school education, the description of innovative processes in management and the methods and role of leading methodical work were analyzed.

Keywords: Education, management, innovative, methodical, planning, management, control, modern approach.


Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy kamolotni garmonik tarzda mujassamlashtirgan yangi kishini shakllantirishni ko'zda tutadi. Har tomonlama tarbiyalash hayotning ilk yoshlaridanoq boshlanishi kerak, bunda esa uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblanmish maktabgacha ta'lim tashkilotlari etaksi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ushbu tizim takomillashib bormoqda. U yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashni ta'minlashi uni mehnatga va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashi kerak. Yangi insonni tarbiyalash vazifasi " Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida " gi Qonunda o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidaentining qaror va farmonlari, Maktabgacha ta'lim vazirligining barcha me'yoriy hujjatlarida qayd qilingan. Bola hayotidagi dastlabki yetti yil sog'lomlik, aqliy , mehnat va estetik jihatdan kamol topishning asoslari vujudga keladigan g'oyat muhim davrdir.



Bola yangi jamiyat quruvchisi bo‘lib yetishguncha jismoniy va psixik rivojlanishning murakkab yo‘lini bosib o‘tadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish maktabgacha tarbiya pedagogikasi erishgan muhim yutuqlardan biridir. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish muhim va zarur deb hisoblaydi. SHuning uchun bola shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishning asosiy qonuniyatlariga tayanadi. Tarbiya rivojlanishning hal qiluvchi faktoridir. Tarbiya jarayonida bola bilim, malaka va ko‘nikmalarni, hatti-harakat usullarini, axloq me‘yorlari va qoidalarini, baho berish malakasi va hokazolarni o‘zlashtirib oladi. Tarbiyaning mazmuni uning maqsadiga muvofiq ravishda tanlab olinadi. Shunga muvofiq davlat o‘quv dasturlarida rejalashtirish asosiy o‘rin egallab kelmoqda. Pedagogik ishlarni boshqarish va rejalashtirishning asosiy maqsadi- har bir yosh uchun belgilab berilgan “ Ilk qadam ” Davlat o‘quv dasturi talablarini bajarishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda Davlat o‘quv dasturi talablarini bajarishga yordam beradi. Bu pedagogik jarayonga uyushganlik xarakterini beradi, tarbiyachining ishini biror maqsadga qaratadi va samarali qiladi. Kattalarning bolalarni tarbiyalashdagi rolini kuchaytiradi. Bu maqsadga erishish uchun u bir qator talablarga javob berishi kerak. Bular quyidagilardan iboratdir.

1. Rejalashtirish bolalar bilan olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlarning g‘oyaviy yo‘nalishini ta‘minlashga da‘vat etilgandir. Ta‘lim va tarbiyaning mazmuni, bolalar hayotini tashkil etish formalari, pedagogik ta‘sir ko‘rsatish metod va usullari bolani har tomonlama, garmonik rivojlantirish maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tanlanadi va rejada aks ettiriladi.
2. Birinchi navbatda bola shaxsining g‘oyaviy-axloqiy maslagini tarkib toptirishni, uning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishni , unga Vatanga muhabbat va xalqparvar tuyg‘ularni, xarakterning insonparvarlik xislatlarining tarbiyalanishini, axloqiy me‘yor va yurish-turish qoidalari, odatlarini o‘zlashtirib olishni ta‘minlaydigan ishlar rejalashtiriladi.



3. Rejalashtirish u yoki bu guruhdagi tarbiyaviy jarayonni tashkil etishga yordam berishi kerak. U bolalar jamoasi va ayrim bolalarning erishgan rivojlanish doirasini hisobga olib, muayyan vaqt mobaynida bolalarga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini aniqlashtiradi. Rejada bolalar faoliyatining xilma-xil turlari (faoliyatlardagi ta'lim, o'yinlar, mehnat) nazarda tutiladi, ularni tashkil etish va bolalarga rahbarlik qilishning asosiy metod va usullari belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning jamoa formalari yakka ish formalari bilan maqsadga muvofiq ravishda qo'shib olinadi. Rivojlanishida vaqtincha orqada qolayotgan bolalar aloxida diqqat e'tiborni talab etadi.
4. Rejada ta'lim-tarbiya mazmuni hamda metodlarini, bolalar faoliyatini tashkil etish formalarini (ularning muvaffaqiyatlarini hisobga olgan holda) asta-sekin murakkablashtirishni nazarda tutish kerak. Bu reja
 - pedagogik ishning sistemaliligini-uning ayrim tur va formalari o'rtasida:
 - ta'limning turli bo'limlariga oid mashg'ulotlar mazmuni o'rtasida :
 - mashg'ulotlar va tarbiyachining kundalik hayotda bolalar bilan olib boradigan ishlari o'rtasida:
 - bolalarning mashg'ulotlari, o'yini,mehnati va hokazolar o'rtasida bog'liqlik o'rnatilishini ta'minlaydi. Bularning hammasi mukammal ta'lim-tarbiya olishi uchun sharoit yaratadi.
5. Agar reja real va aniq bo'lsa, ish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunga rejada muayyan vazifalarni nazarda tutish yo'li bilan erishiladi. Vazifani belgilashda esa bolalarning rivojlanganlik darajasi, ularning qiziqishlari, “ Ilk qadam ” Davlat dasturi talablarining bajarilish darajasi, kundalik ijtimoiy voqealar, kattalar mehnati va turmushi, tabiatdagi xarakterli hodisa va hokazolar hisobga olinadi



Faoliyatlarni rejalashtirishda o'zlashtirishning asosiy bosqichlari (dastlabki idrok qilish, bilim va ko'nikmalarni kengaytirish hamda umumlashtirish, ulardan hayotda foydalanish-yangi sharoitlarga ko'chirish) hisobga olinadi, materialning takrorlanishi va uni murakkablashtirishning tadrijiy xarakteri nazarda tutiladi. O'qitish bo'limiga doir har bir mashg'ulot boshqa bo'limlardagi mashg'uotlar bilan muvofiqlashtiriladi. Masalan, bolalarni tevarak-atrof, tabiat bilan tanishtirishda , nutq o'stirishga oid ba'zi vazifalar ham hal etiladi. " Ilk qadam " Davlat o'quv dasturining bo'limlari o'rtasidagi bog'liqlik ma'lum bir hodisani turli tomondan ko'rsatishga, uning haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga, bilim va ko'nikmalardan turli sharoitlarda foydalanishga o'rgatishga imkon beradi.

Tarbiyachi bolalar bilan olib boriladigan o'qitish ishlarini didaktik o'yinlar, didaktik materiallar bilan bajariladigan mashqlar shaklida ham rejalashtiriladi va tashkil etadi (masalan, nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish maqsadida). Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tomonidan rejalashtirish ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muntazam hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Hisobga olish kelgusidagi rejalashtirish uchun asos bo'ladi. Tarbiyachining bolalarga ta'sir ko'rsatishining eng samarali usullarini, ular faoliyatini tashkil etish formalarini tanlab olishiga yordam beradi, o'z tajribasini umumlashtirishga olib keladi. Pedagog haftalik rejani amalga oshirishga doir o'z ishlari hisobini olib boradi, qilingan ishlarni tahlil qiladi va baholaydi, amalga oshirilgan ishni o'ylab qo'yilgan ish bilan taqqoslaydi, muvaffaqiyatsizlik yoki alohida yutuqlar sababini, bolalarning dastur materialini o'zlashtirish darajasini aniqlaydi, foydalanilgan ish formalari, metod va usullarini ularning samaradorligi, natijalari, mazkur yoshdagi bolalarning xususiyatiga muvofiqligi nuqtai nazardan baholaydi.

Shaxsning axloqiy xislatlarini tarkib toptirish ishi bolalar bilan olib boriladigan barcha ta'lim-tarbiyaviy ishlar jarayonida: mashg'ulotlarda, kundalik munosabatlarda, o'yin, mehnat va hokazolarda amalga oshiriladi.



Shuning uchun axloqiy tarbiya mustaqil bo'lim sifatida rejalashtirilmaydi. Biroq axloq ko'nikmalarini (tevarak-atrofdagi kishilarga nisbatan mehribon va g'amxo'r munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash, madaniy- gigienik ko'nikma va hokazolarni) shakllantirish bolalarning muayyan harakat usulini egallab olishini talab etadi. Bu harakat usulini ko'rsatish, mashqlarni bajarish, o'rgatish, odatlantirish bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun axloqiy va madaniy ko'nikmalar tarbiyalashni (ko'nikmalar hajmini, ularni shakllantirish izchilligini, shuningdek tarbiyachi foydalanadigan usullarni) rejalashtirish lozim. Masalan. Tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan bolalarni kiyinish va yechinish ketma-ketligi bilan tanishtirish uchun “ Qo'g'irchoqni kiyintiramiz ” degan didaktik o'yin o'tkazishni belgilaydi.

Bolalarning o'yiniga rahbarlik qilishning mukammal rejalashtirilishi tarbiyachidan ularni yaxshi bilishni, shuningdek o'zi rahbarlik qiladigan guruh bolalarining ko'proq qanday o'yinlarni sevishi, ularning mazmuni, kimning kim bilan o'ynashni istashi , bolalarning o'yinda qanchalik mustaqilligi, qanday o'yinchoqlarni afzal ko'rishi va hokazolar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishni talab etadi. Bolalarning yoshi ulg'ayib borgan sari ularning o'yini qanday rivojlanishini: Ularning mazmuni qanday o'zgarishi va boyib borishini , bolalarning o'yindagi hatti-harakati qanchalik murakkablashuvi, ular mustaqilligining ortishini ham bilish zarur. Bularning hammasi bolalarning o'yin faoliyati uchungina emas, balki o'yinlariga rahbarlik qilish bo'yicha tarbiyachining pedagogik faoliyati rejalashtirilishi uchun ham muhimdir. Kun mobaynida tarbiyachi bolalarni xilma-xil harakatli va didaktik o'yinlar o'ynash uchun uyushtiradi, ammo bu o'yinlarga ham rahbarlik qilishni rejalashtirishni unutmaslik kerak. U didaktik o'yinlarni kiritish izchilligini nazarda tutadi, bunda u ularning mazmunini , qoida va aqliy vazifalar xarakterini hisobga oladi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori o'z o'rnida ota-onalar bilan ham tashkiliy ishlarni rejalashtirib boradi. Ota-onalar o'rtasida qanday tadbirlar, suhbatlar va ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish mumkinligini rejalashtirib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar o'rtasida pedagogik tashviquot ishlarini olib boradilar, ularni maktabgacha ta'lim tashkilotiga yordam berishga jalb qiladilar, ular bilan aloqa o'rnatish hamda oila bilan bolalar muassasasining bolalariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida izchillik bo'lishi uchun ularni maktabgacha ta'lim tashkiloti ish mazmuni bilan tanishtiradilar, bolalarni oilada tarbiyalashga oid ilg'or tajribalarni o'rganadilar, umumlashtiradilar va tarqatadilar. Bu ishlarning hammasi sistematik ravishda amalga oshiriladi va maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan va har bir guruh tarbiyachisi tomonidan rejalashtiriladi.

Ota-onalar bilan turli yo'nalishlarda olib boriladigan ishlar:

- ota-onalar yig'ilishlari,
- maslahatlar o'tkazish,
- oilalarga borish,
- ochiq eshiklar kuni tashkil etish,
- bolalar ish ko'rgazmasini tashkil etish,
- ota-onalar burchagini yangilab borish,
- bayram va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va hokazolarning aniq mazmuni hamda tashkil etilish formalari ham rejalashtiriladi.

Tarbiyachilar va xodimlar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni va formalari;

- Pedagogika kengashlari,
- Maslahatlar mavzusi
- Jixozlarni qo'shish (yangi qo'shimcha jixozlar olish)
- Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar aniqlanadi.



- Maktabgacha ta'lim tashkilotining turli yosh guruhidagi haftalik ish rejasi umumiy talablarga muvofiq tuziladi, lekin ma'lum darajada o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Jamoa ish shakllarini rejalarishda har bir yoshdagi bolalar faoliyatining mazmuni (qiyinlik darajasiga ko'ra) va davom etishdagi farqlarni hisobga olish kerak.

Адабиётлар / Список литературы / References

1. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturi. Toshkent.
2. 2022 "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi davlat standarti – T.2020 3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
3. O'yin orqali ta'lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
4. G.M.Nazirova "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etish" 2017 y
5. "Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish". N.T.Tosheva. Kamolot nashriyoti. Buxoro. 2022
6. N.T.Tosheva, M.H. Mustafoyeva Registration of age and individual characteristics in education as a pedagogical problem. European scholar journal ISSN(E): 2660-5562 Jurnal Impact Faktor: 7.235 Volume 2, Issue 4 April 2021.– B. 85- 90
7. <https://scholar.google.com/citations?user=jJE1SeoAAAAJ&hl=ru&oi=ao>
8. O.U. Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, Sh. K. Toshpo'latova, M.M. Pirmuhammedova "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent,- "Ilm ziyo"-2011